

## SOVET DAVRIDA MUZEYLAR FAOLIYATINING TASHKIL ETILISHI VA DOLZARB MUAMMOLARI

**Jo'rayeva Muxlisa Orifjonovna**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*magistranti*

[muxlisajorayeva922@gmail.com](mailto:muxlisajorayeva922@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Sovet hukumati davrida muzeylar faoliyati va ularga bo'lgan e'tibor va talab qay darajada ekanligi bugungi kun ilm-fani uchun e'tiborga molik hisoblanadi. Sovet hukumati muzeylar sohasiga yaxshigina e'tibor bermagan bo'lsa ham muzeylar rivojlanishidan va takomillashishidan to'xtab qolmagan. Uning ahamiyati oshishi esa jamiyatga bog'liq bo'lib qolavergan.*

**Kalit so'zlar:** *V.V.Bartold, "o'lkashunoslik muzeylari", urush yillari, muzeyshunoslik, muzey ko'rgazmalari, muzeylar fondi.*

**Аннотация:** *Для современной науки примечательна деятельность музеев во времена советской власти, уровень внимания и востребованности к ним. Советское правительство хотя и не уделяло большого внимания музейной сфере, но не останавливало развитие и совершенствование музеев. Ее значение зависит от общества.*

**Ключевые слова:** *В. В. Бартольд, «национально-исторические музеи», военные годы, музеология, музейные выставки, музейный фонд.*

### ANNOTATION

For modern science, the activities of museums during Soviet times, the level of attention and demand for them are noteworthy. Although the Soviet government did not pay much attention to the museum sphere, it did not stop the development and improvement of museums. Its meaning depends on the society.

**Key words:** V.V. Bartold, "national historical museums", war years, museology, museum exhibitions, museum fund.

### KIRISH

Sovet hukumati davrida "qadimgi madaniyatni o'rganish va yodgorliklarni qo'riqlash faqat foydasizgina bo'lib qolmay, balki zararli ham edi" deya qayd qiladi V.V.Bartord o'z asarlarida. Chunki sovet hukumati qadimgi yodgorliklarni muhofaza qilish, o'z maqsadlari yo'lida foydalanishni afzal bilgan va shuningdek, bu o'lkaga past nazar bilan qaraganligi uchun madaniy yodgorliklarga e'tibor bermagan. Hatto



arxitekturasiga ham past nazar bilan qaralgan. Bu davrda O'rta Osiyo tarixi va madaniyati uchun bebaho hisoblangan ko'pgina nodir qo'lyozmalar, qimmatbaho buyumlar chet ellarga tashib ketildi[1].

## MUHOKAMA

Mahalliy muzeylar taraqqiyoti o'lkashunoslik harakati bilan bevosita bog'liq holda borgan. «O'lkashunoslik muzeylari» atamasi ham o'tgan asrning 20-yillari o'rtalaridan keng tarqaladi. Ularning faoliyati, mazmun mohiyati o'lkashunoslikka oid nashrlarda muhokama etildi. O'lkashunoslik harakatini taniqli olimlar va madaniyat arboblari akademik V.V.Bartold, professor A.A.Semyonov, A.A.Divayev, V.L.Vyatkin, M.E.Masson, L.V.Oshanin va boshqalar boshqarib, muntazam ravishda o'lkashunoslik konferensiyalarini o'tkazib turganlar. Rossiyada 1918–1923-yillari 150 dan ortiq muzey yaratilgan bo'lsa [2], Turkistonda 4 ta, jumladan Toshkentdagi san'at, Namangandagi shahar o'lkashunoslik, Xorazm tarixiy-inqilobiy va Buxoro muzeylari tashkil qilindi. 1923-yili barcha muzeylarning fondi davlat mulki deb e'lon qilindi. Maxsus qarorlarga binoan 1922–1926-yillari muzeylarga tarixiy-badiiy qiymatga ega bo'lmagan buyum va ashyolarni, eskirgan narsa, takrorlanadigan fondlarni sotishga ruxsat berildi. Ushbu yangi iqtisodiy siyosat davrining majburiy chorasi hamda 1929-yili davlat muzey fondlari omborxonalarining tugatilishi haqidagi qaror antikvariat bozorini shakllantiribgina qolmasdan, muzey kolleksiyalarining sotilishiga va tiklab bo'lmas yo'qotishlarga olib keldi. Urush yillarida ko'pgina muzeylar binolarini evakuatsiya qilgan muassasalar uchun bo'shatib berdi. Muzey tarmoqlari vaqtincha qisqardi.

1941 yil iyunda SSSR ning ikkinchi jahon urushiga tortilishi bilan xalqning tinch va osoyishta hayoti buzildi. Mamlakat harbiy izga tushdi. Ilmiy-tadqiqot muassalari, shu jumladan, muzeylarning faoliyati ham tubdan o'zgardi. Ko'pgina muzeylar o'z binolarini evakuatsiya qilingan muassasalar uchun bo'shatib berdi.

Respublika muzeylar tarmog'i vaqtincha qisqardi: birgina O'zbekiston tarixi, madaniyati va san'ati muzeyi nomi ostida San'at, Adabiyot va O'zbekiston tarixi; tabiat muzeyi bilan birga Politexnika muzeyi birlashdi; ateistik targ'ibot muzeyi konservatsiya qilindi. Respublikaning ko'pgina muzeylari ekspozitsiyalari yig'ishtirilib, ilmiy tadqiqot faoliyati hamda shtatlar qisqartirildi[3].

Muzeylardagi ko'pgina malakali xodimlarning frontga ketishi, ekspozitsion ishlar saviyasining pasayishi hamda ilmiy-yig'uv ekspozitsiyalarining keskin qisqarishiga qaramay, muzeylar faoliyati ikkinchi jahon urushi yillarida ham davom etdi. Moskva, Leningradning ko'pgina tarixchi olimlari, arxeologlarining Toshkentga



ko'chib kelishi arxeologik tadqiqotlarni kuchaytirdi. O'zlarida jangchilarning shonli jasoratlarini mujassamlashtirgan harbiy davr yodgorliklarini yig'ish ishi ham avj oldi.

Urushdan keyin O'zbekistondagi ko'pchilik muzeylar 1946-1953 yillarda ko'rgazma tipidagi ekspozitsiyalar yaratish yo'lidan bordi. Ammo bu ko'p hollarda yuzaki xarakter kasb etar edi. Shu holatlarga chek qo'yish va muzeylar ishini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Madaniyat Ministirligi madaniy-ma'rifiy muassasalari Bosh boshqarmasi huzurida muzeylar ishini muvofiqlashtirish bo'yicha doimiy harakatdagi uslubiy seminar tashkil etildi.

O'tgan asrning 60-70-yillardagi muzeyshunoslik O'zbekistonda muzey tarmoqlarini keng ko'lamda kengaytirish ishlarining avj olganligi, moddiy-texnika bazasining tubdan yaxshilanganligi bilan xarakterlanadi. O'zbekiston muzeylari chiroyli, maxsus qurilgan binolarga ega bo'la boshladilar[4].

## **XULOSA**

Sovet davrida muzey ko'rgazmalari rang-barang va yuqori darajadagi san'at asarlariga aylana olmadi. Zero, ko'rgazmalar ham mohiyatan proletariat va dehqonlarning muvaffaqiyatlarini tarannum etishi zarur edi. Shuning uchun maxsus komissiyalar nazorati va muhokamasidan o'tgan asarlargagina mxsat berilib, ular minglab nusxalarda ko'paytirilib, Sovet Ittifoqi hududlarida tarqatilar edi. Shu bilan birga, muzey faqat ma'rifiy ta'sir vositasi emas, ayni vaqtda dam olish, bo'sh vaqtni unumli o'tkazish joyi, sovet xalqi va chet el sayyohligining ommaviy maskaniga aylanishi lozim edi... Sovet Ittifoqi hamda O'zbekistonda muzey ishining holati, ko'p sonli ilmiy munozaralar, yirik kompleks tadqiqotlar, ularning natijalari muzey nashrlarida e'lon qilinishi asosida bo'ldi. Bu davrda muzeylarning soni va turlari o'sishi kuzatildi, ularning targ'ibot hamda tashviqot markazi sifatidagi mamlakatning ijtimoiy hayoti, madaniyatidagi roli esa kundan kunga oshib bordi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasini. – Toshkent: Fan, 1981
2. Bobir Boltayev. Muзейshunoslik fanidan uslubiy – qo'llanma. “Durdona” nashriyoti, Buxoro. 2016.
3. Kuryazova D. Muзей ishi tarixi va nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.2007 y.
4. Yakubov A.S. Muзейshunoslik va arxivshunoslik. Ma'ruza matni. – Samarqand. 2003 y.

